

**YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISH**

**УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА НА ОСНОВЕ
ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ**

**SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE BASED ON THE
GREEN ECONOMY**

Tursunov Yunusali Abduaziz o'g'li

Namangan davlat universiteti Geografiya yo'nalishi

3 – bosqich iqtidorli talabasi.

E-mail: yunusalitursunov8@gmail.com

(Namangan shahri, O'zbekiston)

Abdullayev Azizbek Abdumutalxon o'g'li

Namangan davlat universiteti Geografiya yo'nalishi

3 - bosqich iqtidorli talabasi.

E-mail: azizbekabdullayev213@gmail.com

(Namangan shahri, O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligini ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Unda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tabiiy resurslarni muhofaza qilish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada xalqaro tajribalar hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan

strategik dasturlar asosida qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror qishloq xo‘jaligi, yashil iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы экологически и экономически устойчивого развития сельского хозяйства. Освещаются важные аспекты рационального использования природных ресурсов, производства экологически чистой сельскохозяйственной продукции, внедрения энергосберегающих технологий и обеспечения продовольственной безопасности. Кроме того, рассматривается значение охраны природных ресурсов, применения инновационных технологий и повышения эффективности производства в развитии сельскохозяйственного сектора. В статье также анализируются международный опыт и стратегические программы, реализуемые в Узбекистане, направленные на дальнейшее развитие сельского хозяйства и повышение его устойчивости.

Ключевые слова: устойчивое сельское хозяйство, зелёная экономика, продовольственная безопасность, экологически чистая продукция, рациональное использование природных ресурсов, инновационные технологии.

Abstract: This article analyzes the issues of environmentally and economically sustainable development of agriculture. It highlights the importance of rational use of natural resources, production of environmentally friendly agricultural products, the introduction of energy-efficient technologies, and ensuring food security. In addition, the study examines the significance of protecting natural resources, applying innovative technologies, and increasing production efficiency in the development of the agricultural sector. The article also evaluates international experience and the strategic programs implemented in Uzbekistan aimed at further developing agriculture and improving its sustainability.

Keywords: sustainable agriculture, green economy, food security, environmentally friendly products, rational use of natural resources, innovative technologies.

Kirish. Hozirgi kunda ekologiya, atrof -muhitni muhofaza qilish, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligida energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash, tabiatdan oqilona foydalanish muammolari hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy qishloq xo'jaligi sharoitida ishlab chiqarish tizimlari va birinchi navbatda agrosanoat kompleksi faoliyati hududning ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy omillar bilan birga rivojlanib bormoqda. Qolaversa yil sayin o'sib borayotgan aholining oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini mavjud resurslar bilan va texnologiya rivojlanishining hozirgi darajasida qondirish mamlakat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Mahalliy resurslardan foydalanishda maksimal samaradorlikka erishish, ekologik va iqtisodiy xavflarni minimallashtirish uchun ishlab chiqarish tizimlarini diversifikatsiya qilish orqali qishloq xo'jaligini faollashtirish zarur. Shu jihatdan Barqaror rivojlanishning "ochlikni bartaraf etish"ga erishishga qaratilgan 2-maqsadi (SDG 2 yoki Global Goal 2) [1] da oziq-ovqat xavfsizligi, ovqatlanish, qishloqlarni ekologik jihatdan o'zgartirish va barqaror qishloq xo'jaligi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni taminlaydi. Maqsadning mohiyati, "Ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziqlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish hisoblanadi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalalarini o'rganish hamda uning "yashil iqtisodiyot"dagi ahamiyatini zamonaviy talablar asosida yoritishdan iborat. Shuningdek, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish muammolarini oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi sohalari doirasida tahlil qilish muhim **vazifa** sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Bugungi kunda barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Shu jumladan qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish negizida, mazmunan shunday ma'no anglatadigan "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish darajasini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi [15]. Bilamizki joriy ya'ni 2025-yil nomi ham "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" hisoblanadi. Bu barcha qilinayotgan say harakatlar Yashil iqtisodiyotdagi barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ekologik tizimni shakllantirish davr talabidir.. Zamonaviy qishloq xo'jaligi to'qimachilik sanoati uchun tola, oziq-ovqat va chorva uchun ozuqa va aholi uchun zarur mahsulotlar beradi. *Barqaror qishloq xo'jaligi* - bu hozirgi yoki kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan, jamiyatning hozirgi oziq-ovqat va to'qimachilik ehtiyojlarini barqaror yo'llar bilan qondirishdir [2]. Barqaror qishloq xo'jaligi texnologiyalari kelajak uchun yetarli resurslarni ta'minlash uchun ekinlarni barqaror va uzluksiz yetishtirishga yordam beradi. Yuqorida aytib o'tilganidek hozirgi kunda barcha mamlakatlar barqaror qishloq xo'jaligini ma'qul ko'rib, shu tizim bo'yicha qishloq xo'jaligini tubdan isloq qilishga kirishgan. Misol tariqasida Barqaror rivojlanishning "ochlikni bartaraf etish" ga erishishga qaratilgan 2.4-maqсадning mazmuni: "2030-yilga kelib barqaror oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlarini ta'minlash hamda hosildorlik va ishlab chiqarishni oshiradigan, ekotizimlarni saqlashga yordam beradigan, iqlim o'zgarishi, ekstremal ob-havo, qurg'oqchilik, suv toshqini va boshqa ofatlarga moslashish salohiyatini kuchaytiruvchi barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etish, yer va tuproq sifatini bosqichma-bosqich yaxshilash [3] hisoblanadi. Barqaror qishloq xo'jaligi 2030-yil kun tartibining markazida. Ushbu ko'rsatkich faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga bag'ishlangan. Bu jihatdan vatanimiz O'zbekistonda ham barqaror va yashil qishloq xo'jaligi bo'yicha bir nechta qarorlar va loihalar qabul qilingan. Shu jihatdan yaqin kunlarda "Yevropa va Markaziy osiyoda qishloq xo'jaligini kengaytirish" loyiha doirasida tashkil etilgan "Yashil qishloq xo'jaligi" bo'yicha muhim seminar bo'lib o'tdi [4]. Ushbu seminar butun mintaqada yashil qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarning bir qismi sifatida iqlim o'zgarishlarishiga va atrof-muhit yomonlashuvi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda yana bir muhim qadam bo'ldi.

FOA 2022-yil may oyida Yashil qishloq xo'jaligi bo'yicha mintaqaviy texnik platforma ishga tushurilib, ushbu say harakatlarga yetakchilik qilmoqda [4]. Mazkur

paltforma barqaror qishloq xo'jaligi bilan bog'liq turli texnik sahalarda bilim almashinish va hamkorlikni rag'batlantirishga hizmat qilmoqda.

Barqaroq qishloq xo'jaligida rivojlanish uchun o'zini **maqsadi**, bir nechta **tamoyillari** va o'ziga xos rivojlanishning boshqa tarmoqlardan **afzallik** jihatlari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Barqaror qishloq xo'jaligining tavsifi

Tamoyillari	Oziq-ovqat zanjirini optimallashtirish	
	Tabiiy resurslarni muxofaza qilish va tejash	
	Aholi farovonligi va qitisodiy ahvolini yaxshilash	
	Ekotizimlar va jamoalarning barqarorligini rag'batlantirish	
	Hukumat tashabbuslari va qoidalarini qo'llab-quvvatlash	
Maqsadi	Tuproq unumdorligini saqlash va ekotizimlarni bioxilma-xilligini oshirish	
	Atrof-muxit sharoitlarini yaxshilash va ifloslanishini oldini olish	
	Qayta tiklanmaydigan resurslar iste'molini kamaytirish	
	Qishloq hududlarini iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash	
	Fermaerlarning turmush sifati va umuman, huquqlarini yaxshilash	
	Vatanimiz aholisini ekologik ongi va masuliyatini oshirish	
Afzalliklari	Iqtisodiy	Qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash
		Qishloq xo'jaligining aniqlash usullarini qo'llash orqali xarajatlarni kamaytirish
		Iloji boricha fotoalbom yoqilg'ilarni yo'q qilish orqali energiya harajatini tejash

Ekologik	Ijtimoiy	Ish haqini oshirish
		Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish
		Agrokimyoviy vositalardan minimsl foydalanish orqali aholi salomatligini yaxshilash
	Ekologik	Tabiiy ekotizimni hioya qiladi
		Biologik xilma-xillikni qo'llab quvvatlaydi va chorvachilik uchun tabiiy sharoitlarga yaqin sharoit yaratadi
		Tuproqni saqlaydi, xhunki u eroziya va dalalarning kamayib ketishini oldini oladi
Suv va havo isloslanishini minimallashtiradi		

Izoh: Ushbu jadval URL: <https://eos.com/ru/blog/ustojchivoe-selskoe-khozyajstvo/> manbaa asosida, mualliflar tomonidan shakllantirildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan va say harakatlardan ko'rinib turibdiki barqaror qishloq xo'jaligini asosiy vazifasi negizida aholi uchun umumiy holda qishloq xo'jaligida ekologik toza mahsulot yetishtirish, ehtiyojini sifatli mahsulotlar ila qondirish, ekologik barqaror bo'gan intensiv mahsulotlarni bozor talablari darajasida jahon bozorida yetakchi o'rinni egallash turadi.

Bularning bari hozirgi davrda O'zbekistonda olib borilayotgan 2019-2030-yillar davrida "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi siyosati olib borilmoqda. Xususan 2019-yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida "yashil" iqtisodiyot bo'yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining "yashil" iqtisodiyot bo'yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o'tkazildi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil iqlimning o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro bog'liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatadi [5].

Yashil iqtisodiyot: XX asrning 80–90-yillarida ekologik muammolarni faqat iqtisodiy yondashuvlar doirasida hal etishning muqobil yo‘li sifatida ekologik iqtisodiyot tushunchasi shakllandi va jadal rivojlana boshladi. Ushbu yo‘nalish atrof-muhit iqtisodiyotidan farqli ravishda nafaqat iqtisodiyot fanining tarkibiy qismi, balki mustaqil ilmiy tadqiqot sohasi sifatida e‘tirof etiladi.

Atrof muxit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989-yil Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi” deb nomlangan hisobotda foydalanilgan [6]. Bu atamani har bir soha vakillari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qiladi. Bizda esa Yashil iqtisodiyot bu - iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni va ijtimoiy adolatni ta‘minlashni birlashtiruvchi iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyotda energiya, transport va qishloq xo‘jaligi sohalarida ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy qilish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish asosiy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot iqtisodiy jarayonlarni ekologik chegaralar doirasida olib borishni talab qiladi, bu esa global iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan.


Umuman olganda, “barqaror rivojlanish”, “yashil o‘shish” va “yashil iqtisodiyot” tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular “yashil iqtisodiyot” mazmunini chuqurroq ochib beradi. Yashil iqtisodiyotni shakllantirish yashil o‘shishni ta‘minlaydi va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bunda atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish hamda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish asosiy vazifalar hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish muayyan tamoyillarga asoslanadi (1-sxema). Xususan, 2012-yilda UNEP tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar ushbu iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Jumladan, barqarorlik tamoyili yashil iqtisodiyotning

sogʻlom atrof-muhit va umumiy farovonlik bilan uzviy bogʻliqligini ifodalaydi hamda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni uygʻun holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshqa tamoyillar ham yashil iqtisodiyotning barqaror oʻsishini taʼminlovchi muhim omillar hisoblanadi.

1-sxema.

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillari



Izoh: Ushbu sxema mualliflar tomonidan [14; 33-b.] maʼlumotlari asosida tuzuldi.

Oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, barqaror rivojlanish sharoitida qishloq xoʻjaligi murakkab va dinamik tizim boʻlib, unda “yashil iqtisodiyot” investitsion-innovatsion yondashuvlar asosida shakllanadi. Ichki va tashqi omillar taʼsirida tizimning maqsadli rivojlanishi taʼminlanib, minimal xarajatlar bilan hozirgi va kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda sifatli mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi. Qishloq xoʻjaligini rivojlantirishda strategik yoʻnalish sifatida ekinlar va chorva mahsuldorligining tabiiy hamda biologik omillaridan samarali foydalanish muhimdir. Sektorning ekologik talablarga asoslangan rivoji oziq-ovqatga boʻlgan ortib borayotgan ehtiyojni qondirish, atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytirish va qishloq hududlarida kambagʻallikni qisqartirishga xizmat qiladi.

UNEP ning ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligini ekologik asosda rivojlantirish zamonaviy texnologiya va usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi hamda bir qator ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi.[7].

- qishloq xo'jaligida unumdorlik va rentabellikni oshirish. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ekotizimlar bilan bog'liq xizmatlar barqarorligini ta'minlash;
- tashqi muhitga salbiy ta'sir miqdorini kamaytirish (jumladan, chiqindilar chiqarish) va tashqi muhitga ijobiy ta'sirni bosqichma-bosqich oshirib borish;
- resurslardan oqilona foydalanish orqali tabiiy kapitalni tiklash.

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligini ekologik talablar asosida rivojlantirish ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror ekologik muhitni saqlash bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy sharoitda esa qishloq xo'jaligining barqaror rivoji "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga tayangan holda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish usullarini keng qo'llash orqali ta'minlanadi.

Xulosa. Zamonaviy qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash ustuvor ahamiyatga ega. Aholi sonining ortishi va oziq-ovqatga bo'lgan talabning kuchayishi ishlab chiqarishni innovatsion, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etadi.

Ushbu yondashuv oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish, yer va suv resurslarini saqlash hamda qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada, qishloq xo'jaligining ekologik va iqtisodiy uyg'un rivojlanishi barqaror taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barqaror rivojlanishning 2-maqsadi [Elektron resurs]. — URL: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Barqaror_rivojlanishning_2-maqsadi.
2. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs]. — 12.12.2024. — URL: <http://lex.uz/docs/-7261011>.
3. Sustainable agriculture [Elektron resurs]. — URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Sustainable_agriculture.
4. United Nations. Resolution adopted by the General Assembly on 6 July 2017: Work of the Statistical Commission pertaining to the 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/71/313). — New York: United Nations, 2017.
5. O'zbekistonda yashil qishloq xo'jaligi bo'yicha milliy seminar [Elektron resurs]. — 21.10.2024. — URL: <https://www.uzdaily.uz/uz/o%CA%BBzbekistonda-yashil-qishloq-xo%CA%BBjaligi-bo%CA%BByicha-milliy-seminar/>.
6. 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida [Elektron resurs]. — 04.10.2019. — URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4539502>.
7. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. — London: Earthscan Publications Ltd., 1989. — 192 p.
8. Vahabov A. V., Xajibakiev Sh. X. Yashil iqtisodiyot: darslik. — Toshkent: “Universitet”, 2020. — 262 b.
9. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication [Elektron resurs]. — URL: <https://www.greengrowthknowledge.org/resource/towards-green-economy-pathways-sustainable-development-and-poverty-eradication>